

“Vatanni kuylagan shoir”

2021 yil 16 mart kuni “Adiblar hiyobonida” “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti dekani R.Hakimov boshchiligidan kafedra mudirlari, professor-o'qituvchilar hamda talaba yoshlar hamroxlidagi O'zbekiston qaxramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov hayoti va ijodi, she'riyatini talqin etish, o'rganish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi Sobir O'nar hamda shoir Mansur Jumayevlar ishtirok etishdi. Uchrashuvda tashrif buyurgan mexmonlar O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning hayoti, she'riyati uning vatanparvarlik shijoati xususida yig'ilganlarni bahramand etdilar. Tadbir davomida shoir she'riyati va ijodiga bag'ishlab ochiq dars o'tkazilib she'rlar o'qildi. Fakultet talaba yoshlari ham shoir she'rlarini yod etdilar. Uchrashuv ko'taringki adabiy ruhda bo'lib o'tdi.



Shundan so'ng, fakultet professor-o'qituvchilari hamroxlidagi “Chig'atoy” qabristoniga Abdulla Oripov qabrini ziyorat qilish uchun borildi. Qur'on tilovat qilinib O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yod olindi.



“SXTE va B” fakulteti dekani o'rinnbosari J.Turdiev ma'lumoti

TIQXMMI matbuot xizmati